



BORXES ASARLARIDA RAMZ VA TIMSOLLARNING QO‘LLANILISHI

Tolib Najmiddinov¹

¹O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tadqiqotchisi

KALIT SO‘ZLAR	ANNOTATSIYA
ramz, timsol, esse, mifologiya, afsona, janr, badiiy tafakkur.	Mazkur maqolada argentinalik yozuvchi X.L.Borxes asarlarida ramzlar va mifologiyaning o‘rni yoritilgan. Muallif yozuvchi asarlarining o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan, syujet mohiyatiga singdirilgan asotir va afsonalar, xayoliy fantastik motivlar haqida mulohaza yuritadi.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	АННОТАЦИЯ
символ, эссе, мифология, миф, жанр, художественное мышление.	В данной статье рассматривается роль символики и мифологии в произведениях аргентинского писателя Х.Л.Ворхеса. Автор рассуждает об особенностях произведений Борхеса, в частности, вкрапления легенд и мифов, фантастических мотивов в сюжет произведений.
KEY WORDS	ABSTRACT
symbol, essay, mythology, legend, genre, artistic thought.	This article discusses the significance of symbols and motifs in the works of the Argentine writer J. L. Borges, focusing on key characteristics unique to his writings. These include elements of myths and legends, the mysterious and magical, imaginative fantastical motifs and genres, and mythology.

Kirish. Xorxe Luis Borxes antik davr va hozirgi zamon Sharq-u G‘arb sirlarini anglashga intilgan, ko‘pgina xalqlarning falsafiy hamda diniy-mistik ta‘limotlarni o‘rgangan va ularni o‘z ijodi mohiyatiga mohirona singdirgan adibdir. Uning ijodi ham estetik zavq, ham teran ilm-ma‘rifat berishi bilan qadrlidir.

Metodologiya. Maqolada adabiyotshunoslikda qo‘llaniladigan bir qancha metodlardan foydalanilgan. Jumladan, ijodkor shaxsiyati bilan bog‘liq tahlillar avtobiografik metoddan, asarlarining tahlili qiyosiy metoddan foydalangan holda tahlilga tortilgan. Shuningdek, Lotin Amerikasi adabiyoti va Borxes ijodi tarixiy-madaniy metod orqali solishtiriladi hamda tahlillar asnosida ijodkor shaxsiyati gavalantiriladi.

Natijalar. Borxessiz Lotin Amerikasi adabiyotini hech kim to‘laqonli va bugungi kungiday ilg‘or adabiyot sifatida tasavvur qilolmaydi, shuningdek, Lotin Amerikasi

adabiyotida birorta mashhur yozuvchi yo‘qki, o‘zini Borxesning u yoki bu ma‘noda shogirdi deb hisoblamasin. Adib asarlaridagi beqiyos insoniy g‘oyalar – milliy-madaniy tushunchalar va diniy ta‘limotning chuqur tahlili nafaqat o‘quvchi, balki shoir yozuvchilarning ham e‘tiborida bo‘lib, ko‘plab ijodkorlar tom ma‘noda o‘zini uning shogirdi deb hisoblaydi. Masalan, Kortasar, Markes Fuentes, Noy Kasares, Sabato kabi o‘nlab adabiyot namoyandalari o‘zini uning izdoshi deb biladi. Kortasar, Markes Fuentes, Noy Kasares, Sabato va boshqa yozuvchilarning ijodiga Borxes juda katta ta‘sir o‘tkazgan. Ko‘zlari ojiz bo‘lib qolganda ham mutolaa va fikrlashdan to‘xtamagan Borxes Sharq va G‘arb adabiyotini o‘zaro sintez qilib, bir-biriga yaqinlashtirgan hamda shu adabiyotlar an‘analari mujassamida Lotin Amerikasi adabiyotining ilg‘or yo‘nalishlarini belgilab bergan, o‘z ijodi bilan adabiyotda ulkan qomus yarata olgan. Lotin Amerikasi



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/1-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

namoyandalari o‘zlarini “butun dunyo” adabiyotining merosxo‘rlarimiz deb atar ekan, bunda avvalo, Borxesning xizmatlarini nazarda tutadilar. Borxes ijodida xitoy, hind, islom olami, Ovro‘pa faylasuf va shoirlarining asarlari, shaxslar hamda ularning insoniyat tafakkuri hamda ijtimoiy tarixida tutgan o‘rinlari haqidagi badiiy xulosalar joy olgan. Uning asarlari ichida Muqanna, sarbadorlar, Amir Temur, tasavvufga bag‘ishlangan katta-kichik hikoyalar, esselar uchraydi. Borxes o‘z ijodida butun dunyo tafakkur tarixini shunchaki shuhratparastlik yoki shunchaki xabardor bo‘lib qo‘yish uchun qilmagan: u bu tafakkur mahsullaridan hamisha zavqlanib kelgan, ularga XX asrdagi fikrlovchi inson nuqtayi nazaridan baho bergan, ularni yagona, yaxlit holatda adabiyotga olib kirgan [1].

U yoshligidanoq qadimgi yunon, rim, hind, xitoy, arab falsafiy hamda diniy-mistik ta‘limotlarini o‘rgangan va ko‘plab muqaddas kitoblarning ilohiy g‘oyalaridan bahramand bo‘lgan va bu bahramandlik uning ham ijodiga ko‘chib o‘tgan. U o‘ta murakkab, falsafiy-diniy mistik ta‘limotlarni afsona va asotirlarni yengil esse yoki hikoya tarzida bayon etishga va ulardagi real voqelik bilan bog‘liq holda tasvirlashga intiladi. Natijada bular Borxes ijodining har jabhasida rang-baranglik, takrorlanmas va kutilmagan voqelik, g‘ayritabiiy qarashlar va izohlar uchun asos yaratadi.

Borxes ijodi rang-barang bo‘lishi bilan birga serqirra. Uning e‘tiboridan chetda qolib ketgan mavzular deyarli yo‘q. U hamma narsa to‘g‘risida yozgan: tarixiy shaxslar, faylasuflar, yozuvchilar, sultonlar, kitoblar, ertaklar, afsonalar, tush, tiriklik, tabiat, do‘zah, jannat, vayronagarchiliklar, insonlar qismati, tarixiy davrlar, madaniyat, ma‘naviyat, ong, aql, ruhiyat, qalb, asarlar, dunyo sir-sinoatlari, tiriklik mazmuni, vaqt mashinasi... adib nigohidan chetda qolmagan.

Antik davr va hozirgi zamon adabiyoti, ko‘pgina xalqlarning falsafiy hamda diniy-mistik ta‘limotlarini o‘rgangan adib ijodi ham estetik zavq, ham teran ilm-ma‘rifat berishi bilan qadrlidir.

Borxesning voqelikni nafis san‘at vositalari va obrazlari orqali tasvirlagan go‘zal ijodi badiiy san‘atning estetik talablariga to‘la javob bera oladi; uning asosini sivilizatsiyalar natijasida paydo bo‘lgan tushunchalar tashkil qilishi yozuvchining dunyo madaniy merosini o‘rganish, asrash, ommalashtirishga intilganidan dalolatdir.

Borxes ijodining shakl jihatdan muhim xususiyati kichik janrlarga ko‘p murojaat qilganligida ko‘rinadi. “Uning kichik janrlar borasidagi ijodi sermahsul. Borxes – to‘liqlik va ixchamlikning jonli timsolidir. Men bunga o‘xshash boshqa parcha (iqtibos) va zakovat namunasini bilmayman” [2; 158] deb yozadi Syuzen Santang. Haqiqatdan u shaklan mo‘jaz, lekin mohiyatan katta, yaxlit, bir butunlik kasb etgan ijod namunalarini yaratdi.

Bu madaniyat ramziy ma‘noga ega ekanligi uzoq vaqtdan beri tan olingan. Xorxe Luis Borxes bir necha bor ramzlar va metaforalarga ishora qiladi, bu uning sevimli pozitsiyasini aks ettiradi – “Jahon tarixi – bu bir nechta metaforalarni talaffuz qilishda turli xil intonatsion voqealar”. Shuni ta‘kidlash kerakki, falsafada metafora va san‘at turlaridan foydalanish uning butun rivojlanishi davomida kuzatilishi mumkin: Aflotun dialoglaridan Sartr va Adorning XX asrdagi falsafasiga qadar. Bu g‘oyalarga eng mos keladigan badiiy shakl: metaforaning noaniqligi dunyodagi inson mavjudligining noaniqligiga eng mos keladi. Borxesning madaniyat olami va inson haqidagi bilimlari aniq semantik va ramziy ifoda orqali amalga oshiriladi. Borxesning eng keng tarqalgan metafora va paradigmasi kitob va kutubxona paradigmasiga aylandi.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/1-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Borxes uchun kitob madaniyatning haqiqati, chunki u o‘zi uchun nafaqat belgi, balki “matn” vazifasini bajaradi, uni nafaqat kuzatish, balki anglash ham zarur.

Ushbu “matn” ta’rifidan ko‘cha nomlari va uy raqamlari, reklamalar, yo‘l belgilari, odamlarning kiyimlari matn hisoblanadi, chunki ularning barchasi ma’lumotga ega va odamlar o‘qishi va tushunishi kerak. Xuddi shu narsani, masalan, har qanday narsa, marosim, nutq, san’at asarlari haqida aytish mumkin. Har safar ba’zi bir madaniy hodisalar bilan duch kelishimiz kerak, ammo shu bilan birga matnni to‘g‘ri o‘qish va tushunish muammosi mavjud.

Borxesning falsafiy dunyosi obyektlar va hodisalardan iborat emas, aksincha matnlardan, “intellektual ma’lumotlardan, madaniy tushunchalar va estetik nazariyalar”dan iborat. Aynan tayyor matnlardan uning asarlari yaratilgan, ular tirnoq va fikrlarning “qutilari” dir.

Borxesning ko‘pgina qissa, hikoyalari markaziy obyekt aynan shu so‘zning tor ma’nosidagi matnlardir – bayon qilingan, sharhlangan, taqqoslangan, aniqlangan kitoblar, qo‘lyozmalar yoki og‘zaki afsonalar (“Tangri bitigi”, “Bobil kutubxonasi”, “Tlyon, Ukbar, Orbis Tertius” va boshqalar). Huddi shu narsa so‘zning keng ma’nosidagi matnlarga nisbatan ham qo‘llaniladi. Shunday qilib, “Tarmoqlangan so‘qmoqlar bog‘i” asarida qotillik to‘g‘ri o‘qilishi kerak bo‘lgan “matn” bo‘lib chiqadi va “Funesning mo‘jizaviy xotirasi” da xotira matnlarini tuzishning mumkin bo‘lgan usullari masalasi ko‘rib chiqilgan.

“Tarmoqlangan so‘qmoqlar bog‘i” qissasida xitoylik donishmand Ku Peng tomonidan o‘ylab topilgan bog‘ obrazi kitobning juda qiziq chiqqan epizodlardan biridir. D.S. Lixachyov “So‘z va bog‘” maqolasida shunday ta’kidlaydi: “Barcha asrlarda va barcha ajoyib uslublarda bog‘lar tabiat, koinotning ideal qiyofasi bo‘lgan. Tartibli tabiat,

avvalo, Muqaddas Kitob, kitob, kutubxona kabi o‘qilishi mumkin bo‘lgan tabiatdir” [3; 64]. Borxes bu olim ta’kidlaganidek, yerda cheksiz kitob, labirint yaratishga, boshqacha qilib aytganda, dunyoni o‘z qahramoni harakati bilan “ajralib turadigan, yaqinlashuvchi va parallel vaqtlarning bosh aylantirib turuvchi tarmog‘i” [4; 358] sifatida namoyish etishga harakat qilmoqda, vaqt va shu bilan bog‘liq matnni talqin qilish muammosini ko‘tarish, ushbu kuzatishlarining asosini tashkil etadi.

Har qanday matnni har xil talqin qilish mumkin. Badiiy adabiyot, musiqa asarini yaratgan kishi o‘z ijodini madaniyatning keyingi rivojlanishi sharoitida anglay olmaydi. U ham, uning zamondoshlari ham o‘z asarlarining mazmuni va ma’nosini o‘zidan keyingi davrlarda baholangandek baholash imkoniga ega emas. Matn yangi tarixiy va madaniy kontekstga tushib, yaratilish paytidagi mazmundan farqli ravishda yangi ma’no bilan to‘lib boraveradi.

Shunday qilib, madaniy asarlarni tushunish har davrda turlicha. Bu hech qachon yakuniy bo‘lishi mumkin emas, ularning yagona to‘g‘ri talqini yo‘q. Borxes badiiy matnning asosiy xususiyatini aynan so‘zlar va ramzlar polisemiya (Ko‘p ma’nolilik, til birliklarining bir nechta ma’noga ega bo‘lishi) ko‘rsatadi.

Borxes she’riyatining so‘nggi kitoblaridan birining prologida uni “kutubxonachi” deb ataganlarning fikriga qo‘shiladi: “Otamning kutubxonasi hayotimning hal qiluvchi omili bo‘lganligini takrorlashga ijozat beriladimi? Aslida, men hech qachon Alonso Kuyano kutubxonasidan (XX asrning o‘rtalarigacha tarixchi Alonso Kuyano nomidagi Milliy tarix akademiyasi kutubxonasi) chiqmaganim kabi u yerdan chiqmaganman” [5; 14].

Kitob aynan umuminsoniy madaniyatning manbasi va ma’nosi bo‘lgan mohiyatdir. Kitob



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/1-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

nafaqat o‘qish uchun, balki Borxes uchun – bu xotira ombori, Borxes va kitob KUTUBXONAning sinonimidir. Fransiyaning zamonaviy strukturalistlaridan biri J. Genetta Borxesning fikriga qo‘shilib, shunday deb ta’kidlaydi: “Kutubxona adabiy makonning eng aniq va muqim belgisidir... bu yerda so‘z sukunat shaklini oldi” [3; 282]. Borxes kutubxonadagi barcha kitoblarni bitta kitobning (“Alp” kitobning) sahifalari, alohida matnlari sifatida ko‘radi.

Muhokama va xulosa. Xulosa qilib aytganda, Borxes o‘zining madaniyat modelini yaratish uchun ramzlardan foydalanadi. Har qanday tizim ratsional, mantiqiy fikrlashni talab qiladi. Shuning uchun metafora Borxes uchun ko‘p qirrali

epistemologik (falsafa bo‘limidan biri bo‘lib, u bilish qonuniyatlari va imkoniyatlari, bilimning obyektiv reallikka munosabatini o‘rganadi) vosita bo‘lib, madaniyatning bir nuqtasidan ikkinchisiga o‘tishiga yordam beradi, mantiqiy, aqliy dunyodan sirli, irratsional dunyoga “madaniy ko‘chish” qilishga ko‘maklashadi. Borxes eklektizmni (har xil falsafiy tizimlardan olingan turli xil qoidalarni birlashtirish orqali falsafiy tizimni qurish usuli) qo‘llagan holda o‘ziga xos madaniyat olamini bir butun sifatda ko‘rsatishga harakat qiladi, madaniyatda turli xil dunyoqarash tendensiyalari va qarama-qarshi tushunchalarni antologik jihatdan birlashtirishga urinadi hamda bunga muvaffaq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. http://uza.uz/oz/society/mu-anna-talimoti-parda-ostida-21-01-2020?sphrase_id=5068460
2. Иностранная литература // М.: 1999. – № 9.
3. Лихачев Д.С. Слово и сад / Finitis dudecimi lustris. – Таллин, 1982. – С. 64-240.
4. Борхес Х.Л. Сочинения в трёх томах. – Рига: Полярис, 1997.
5. Борхес Х.Л. Проза разных лет: Сборник. - М.: Радуга, 1989.
6. Женетт Ж. Фигуры. В 2-х т. – М., 1998.